

**MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARDA AXLOQIY
MUNOSABATLARNI SHAKLLANTIRISH MEXANIZMLARI**

Teshaboyev Akramjon Yuldashevich

Andijon davlat Chet tillari instituti

Itimiy-gumanitar, pedagogika va psixologiya

kafedrasi mudiri, p.f.n. dotsent

Dumarova Gulmira Kozimbekovna

Ijtimoiy gumanitar fanlar,

pedagogika va psixologiya kafedrasi

Annotatsiya

Mazkur maqolada maktabgacha yoshdagi bolalarda axloqiy munosabatlarni shakllantirish mexanizmlari mavzusi o'rganib chiqilgan. Ijtimoiy axloq normalarining berilishi birinchi navbatda maktabgacha tarbiya yoshining ikkinchi bosqichida kattalar tomonidan axloq –odob normalarini majburiy ixtiyoriy tarzda bolaning axloqiy ongiga singdirib boriladi. "Axloqiy realizm" "bola motivlarini baholashda ichki istakni anglab etmaydi va bu harakatni faqat tashqi ta'sir, moddiy rag'bat bo'yicha baholaydi" deb ta'kidlagan.

Kalit so'zlar: bixeviorizm, kognitivistik, intererizatsiya, xulq-atvor, axloqiy his-tuyg'u.

Kirish

Psixologik tadqiqotlar tahlili shuni ko'rsatadiki axloq tuzilmasi axloqiy anglash, axloqiy his etish va axloqiy munosabatlarni o'z ichiga olashi shu uch omillarning tuzilmadagi o'rni va mavqeini ham belgilab, bu masala bo'yicha turli xil qarashlar mavjudligi ko'rsatib beradi.

SHuning uchun ham axloqiy munosabatlar shaxsning axloqiy sohasining tarkibiy birligi sifatida axloqiy fazilatlar, axloqiy his-tuyg'ular, axloqiy xulq-atvor bilan bir qatorda, maktabgacha tarbiya yoshdagi bolalikda ham xuddi shunday qonuniyatlar va butun axloqiy soha bilan bir xil mexanizmlar orqali rivojlanishini ko'rsatib beradi. Quyida psixologiya ilmiy maktablarida olib borilgan tadqiqotlar tahliliga murojaat qilsak.

Bixeviorizm nuqtai – nazaridan qaralganda asosiy xulq-atvorni shaxsda axloqiy me'yorlarning shakllanishini mustahkamlash bilan bog'lab, ildiz sabablarini ana shunday talqin qilishgan. B.Skinner rag'batlantirish yoki jazolash orqali xulq-atvorning ma'lum bir stereotipini, xususan, axloqiylik va axloqiy munosabatlarni shakllantirish mumkinligiga ishonch hosil qiladi. Axloqiy xulq-atvorni shakllantirishning ikkinchi mexanizmini - ijtimoiy modellardan o'rganishni ham

ko'rsatadilar. A. Banduraning fikricha, kattalarning xatti-harakati taqlid va taqlid qilish uchun namuna bo'lib xizmat qiladi. Aynan maktabgacha tarbiya yoshidagi bolaning kattalar xatti-harakatini takrorlashi esa bevosita mustahkamlash bo'lmaganda sodir bo'lishi mumkin va bolaning modelga munosabatiga bog'liqdir deb hisoblaydi. S. Dj. Dyu Tua va N. Kryuger ota-onalarning ijobiy ta'siri bilan 5 yoshga to'lgan bolada axloqiy me'yorlarning ijtimoiy ahamiyati haqida tushunchalar paydo bo'lishini ta'kidlaydilar. Bu keltirilgan nuqtai nazar hulosa qilish mumkinki: "Xulq-atvor modellari, ma'lum tashqi ta'sirlarga bo'lgan munosabat, o'zgalar bilan munosabatda bo'lish usullari, asosan bolalik davrida sodir bo'lgan modellarni o'z ichiga oladi". Umuman olganda, ijtimoiy ta'lim nazariyasi tarafdorlari uchun axloqiy rivojlanish jamiyatning axloqiy talablariga xulq-atvor va hissiy muvofiqlikning o'sishidir deb qarash xaqiqatga mos keladi. Individual rivojlanishning har bir daqiqasida axloqiy tanlovning asosiy motivatsiyasi biologik ehtiyojlarda yoki mukofotga bo'lgan intilishda (jazodan qochish) tarkib topadi.

Kognitivistik yo'nalishda esa J. Piaje tomonidan o'tkazilgan tadqiqotning markaziy ob'ektida bolaning intellektini rivojlantirish va axloqiy ong mazmunini o'zlashtirish darajasini aks ettiruvchi axloqiy normalar negizini ko'rib chiqqan. Uning fikricha – axloqiy ongning shakllanishi bola intellektual rivojlanish bilan bevosita bog'liq. U ishlab chiqilgan klinik suhbat usulida bolalar axloqiy muammolarni hal qilish va shu bilan birga bolalarning axloqiy normalarining tuzilishi haqidagi umumiy g'oyalari asosida intellekt malakasiga ega bo'ladi. Uning fikricha axloqiy ongning taraqqiyoti bosqichma-bosqich shakllanishini ta'kidlaydi. Ya'ni axloqiy realizm yoki heteronom (tashqi kirib kelgan) axloq normalari (majburlash odobiga rioya qilish) va avtonom axloq bosqichi (hamkorlik, hamkorlik etikasi). Ijtimoiy axloq normalarining berilishi birinchi navbatda maktabgacha tarbiya yoshining ikkinchi bosqichida kattalar tomonidan axloq –odob normalarini majburiy ixtiyoriy tarzda bolaning axloqiy ongiga singdirib boriladi. "Axloqiy realizm" "bola motivlarini baholashda ichki istakni anglab etmaydi va bu harakatni faqat tashqi ta'sir, moddiy rag'bat bo'yicha baholaydi" deb ta'kidlagan. Piyajening fikridan xulosa qilsak axloqiy munosabat rivojlanishi bilan operativ (tezkor) fikrlashning o'rni oshadi, bu esa bolani motivlarini anglashga va axloqiy munosabatlarni muhim deb hisoblashiga turtki bo'ladi.

L. Kolberg J. Piajening kognitiv-genetik nazariyasini davom ettirib insonning axloqiy rivojlanishiga oid umumiy tadqiqot natijalarini o'rganib, bu davrda inson axloqiy munosabatlar rivojlanishning uchta darajasidan 6 bosqichini ajratib ularni quyidagi: I-Darajali. An'anaviylikdan oldingi.

1. Jazo va itoatkorlik yo'nalishi (qanday qilib jazodan qochishim mumkin?)

2. Sodda Gedonik Orientatsiya (Bu men uchun nima foydali?)

II-darajali. An'anaviy.

3. Ichki doiraga kichik guruhga (ijtimoiy me'yorlar, "yaxshi bola" modeli) rioya

qilishga yo'naltirish.

4. Ijtimoiy adolatning belgilangan tartibini va qat'iy qoidalarni saqlashni o'rnatish (axloq qoidalari va qonunlarga mos keladi)

III-darajali. An'anaviylikdan keyingi

5. Utilitarizm va axloq g'oyasi ijtimoiy shartnoma (ijtimoiy shartnoma) mahsuli sifatida.

6. Umumjahon axloqiy tamoyillar (o'z axloqiy tamoyillari va vijdon tartibga soluvchi sifatida).

Har bir bosqichda olingan tushuncha keyingi bosqichlar uchun saqlanib qoladi, lekin tafsilotlarga juda kam e'tibor bermasdan, soddalashtirilgan deb qaralishi mumkin. Bu bosqichlarni o'zgarishi J.Piajening fikricha undagi rivojlanayotgan markazlashuv bolaning umumiy kognitiv rivojlanishi bilan bog'laydi. L.Kolbergning fikricha aqliy taraqqiyotning rivojlanishi axloqiy munosabatlar rivojlanishidan kelib chiqadi deb ta'kidlaydi.

L.Kolberg va J.Piajelar axloqning ijtimoiy belgilanishi haqida, ularning tushunchalaridagi farqlardan biri shundaki, birinchisi axloqiy kamolotga erishish yoshini 12 yosh deb hisoblaydi (mustaqil xulosalar paydo bo'lishi), ikkinchisi bu kamolotga faqat kattalar erishishi mumkin deb hisoblaydi. SHundan ma'lumki to'g'ri fikrlar L. Kolbergga tegishli bo'lib, u o'zining qarashlarini 20 yillik tajribalarini tadqiqotda tasdiqladi, ularning axloqiy hukmlari darajasini aniqlash uchun har 4 yilda tajriba ishtirokchilari bilan suhbat o'tkazish orqali ma'lumotlarni umumlashtirdi.

Shuning uchun ham maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalarda turli darajadagi axloqiy munosabatlarini - turli darajadagi axloqiy talablarga (axloqiy tamoyillar, axloqiy fazilatlar va axloqiy me'yorlar) nisbatan solishtirish orqali L.Kolbergning kontseptsiyasida faqat o'smirlik va o'spirinlik davrining inson axloqiy ijtimoiylashuv asosida umuminsoniy axloqiy tamoyillarga asoslangan holda axloqiy hukmlarga yaqinlasha olishini ko'ramiz. SHu munosabat bilan maktabgacha tarbiya yoshdagi bolada faqat axloqiy me'yorlarga (asosan "yaxshi ish - yomon ish" dixotomiyasi kontekstida) va qisman axloqiy fazilatlariga ("yaxshi- odam, yovuz odam") nisbatan axloqiy munosabatlar shakllanishi mumkin deb taxmin qilish mantiqan to'g'ri. SHu bilan birga shaxsning axloqiy shakllanishining dastlabki bosqichi (4-5 yoshli bolalar) axloqiy tartibga solinishning tashqi mexanizmlarini yuzaki o'zlashtirish bilan tavsiflanadi. Bola tashqi sanksiyalarga amal qilgan holda, axloqiy talablarni rivojlantirishga darhol kirib bormaydi. Maktabgacha tarbiya yoshi uchun talablar, qoidalar va me'yorlarga rioya qilish istagi "kerak" umumlashtirilgan toifasi shaklida namoyon bo'ladi. "SHunday ekan" ularda motivning paydo bo'lishi ko'rsatmalar, talablar va me'yorlarning mazmuni ko'pincha etarli darajada amalga oshirilmagan bo'lsada axloqiy ongning semantik (mazmunli) kimshakllanishini anglatadi.

Axloqiy munosabatlar shaxsning axloqiy sohasining tarkibiy birligi bo'lib,

axloqiy fazilatlar, axloqiy his-tuyg'ular, axloqiy xulq-atvor bilan bir qatorda, maktabgacha yoshdagi bolalikda ham xuddi shunday qonuniyatlar va butun axloqiy soha bilan bir xil mexanizmlar orqali rivojlanadi. Axloqiy sohani rivojlantirishning markaziy mexanizmini L.S.Vigotskiy tomonidan kashf etilgan intererizatsiyaning universal jarayonidir. Psixologiya uchun uning aksiomatik pozitsiyasi edi: "Bolaning madaniy rivojlanishidagi har bir funktsiya ikki marta ikki tekislikda - birinchi navbatda ijtimoiy keyin psixologik".

L.S.Vigotskiy tomonidan kashf etilgan intererizatsiyaning universal jarayoni axloqiy sohani rivojlantirishning markaziy mexanizmini tashkil qiladi. Bu psixologiya uchun uning aksiomatik pozitsiyasi bo'lib xizmat qiladi. Ya'ni "Bolaning madaniy rivojlanishidagi har bir funktsiyasi ikki tekislikda - birinchi ijtimoiy ikkinchisi esa psixologik" jihatdan namoyon bo'ladi.

SHuningdek L.S.Vigotskiy shuni ko'rsatdiki, "Bola va kattalar o'rtasidagi muloqot jarayoni qanchalik rivojlangan bo'lsa, bolalarning umumlashtirishi ham kengayadi yoki aksincha" bo'ladi. o'ylashimiz mumkinki, axloqiy tushinchalar va fikrlarni umumlashtirish, ularning kristallanishi bola psixikasida, jumladan, axloqiy munosabatlarda yaxlit shakllanishlarga olib keladi. Aqliy rivojlanish dialektikasi shundan iboratki, bola umumlashtirish bilan birga kontseptsiyani farqlash jarayonini rivojlantiradi. Bolaning axloqiy va kognitiv rivojlanishining mantig'i axloqiy munosabatlar va xulq-atvor to'g'risidagi empirik bilimdan "kontseptual tuzilgan" bilimga bosqichma-bosqich o'tishdan iborat bo'lib, axloqiy munosabatlarning aksini axloqning universal tushunchalari - "yaxshi" va "yomon" orqali o'zgartirish mexanizmi orqali amalga oshiriladi." Bu munosabatlarni o'ziga xos nozik tabaqalashtirilgan tasvir va tushunchalar orqali aks ettiriladi. SHunisi e'tiborga loyiqki, axloqiy tushunchalarni ishlab chiqish, shuningdek, axloqiy xatti-harakatlar va axloqiy tuyg'ularni umumlashtirish va farqlash sifatida ko'rib chiqish taklif etiladi. Demak umumlashtirish va farqlash ham axloqiy munosabatlarni shakllantirish mexanizmlarini nazarda tutadi.

N.V.Melnikov va L.S.Vigotskiylar shunday yozadi - "Axloqning tashqi ideal shaklidan shaxsning ichki vositalariga o'tish orqali amalga oshiriladi: katta belgi va so'z, ramz, ma'no va afsona». U so'z, ramz va ularning vositachi sifatidagi ma'nosi haqidagi g'oyalarga muvofiq, asosiy axloqiy tushunchalar shaxsning axloqiy rivojlanishining psixologik vositasi deb hisoblaydilar. SHu bilan birga o'rganilgan axloqiy tushunchalar, me'yorlar va qoliplar axloqiy tajribada mustahkamlanadi. Barcha yangi axloqiy vaziyatlarga o'tadi va bolaning xatti-harakati va munosabatlarning yo'nalishini belgilay boshlaydi. Eksteriorizatsiya mexanizmi axloqiy rivojlanish jarayoniga axloqiy xatti-harakatlarning ichki stimullari va motivatorlarini, axloqiy baholarni, his-tuyg'ular va tajribalarni kiritish imkonini beradi. SHunday qilib axloqiy sohaning rivojlanishi N.V.Melnikova bo'yicha bola

uchun mavjud bo'lgan asosiy axloqiy tushunchalarni o'zlashtirish jarayoni sifatida: yaxshi-yomon, mumkin emas, xushmuomalalik-qo'pollik, haqiqat-yolg'on, rahm-shafqat va befarqlik, bag'rikenglik-toqatsizlik, sezgirlik-qo'zg'aluvchanlik, sahovat-tamagirlik, yaxshi-yomonlik, shafqat-shafqatsizlik xususiyatlari namoyon bo'ladi.

Axloqiy sohaning shakllanishi o'z-o'zidan (bolaning hissiy-sezgi idroki aqlni chetlab o'tib, refleks darajasida axloqiy g'oyalar tizimini shakllantirishga imkon beradi) yoki taqlid qilish (bola, o'zini anglamay, boshqalarning xatti-harakatlarini qabul qiladi), ongli ravishda esa - ta'lim va tarbiya jarayonida shakllanib boradi. Maktabgacha tarbiya yoshining axloqiy sohasini rivojlantirish mexanizmining umumiy mantig'i R.V.Ovcharova va N.V.Melnikov quyidagi qoidalar shaklida taklif etiladi:

- axloqiy me'yorlarni amalga oshirish ijobiy tajribalar bilan bog'liq bo'lsa, bolaning axloqiy xulq-atvori adekvat bo'ladi;

- axloqiy xulq-atvor va ijobiy axloqiy tajribalar bunday xatti-harakatni rag'batlantiradigan boshqalar bilan muloqot qilish jarayonida barqaror ijobiy hissiy munosabatni saqlashga yordam beradi;

- axloqiy xulq-atvor, ijobiy tajriba va munosabatlar axloqiy talablarga rioya qilgan holda, ularga nisbatan ijobiy munosabatni yana rag'batlantiradi va yangi axloqiy harakatlarga olib keladi;

- shu asosda bolada tashqi rag'batlantirish bilan bog'liq bo'lmagan, balki o'zining axloqiy munosabatlari, baholashlari va o'zini o'zi qadrlashi bilan shartlangan barqaror axloqiy harakatlar rivojlanadi;

- asta-sekin yuqori axloqiy tuyg'ular va eng avvalo, kattalar oldidagi burch tuyg'usi, ularning axloqiy talablarini jazolash tahdidi tufayli emas, balki majburiyat tufayli qondirish istagi shakllanadi;

- shaxsning axloqiy sohasining turli tarkibiy qismlari (kognitiv, hissiy va xulq-atvor) bilan bog'liq bo'lgan turli xil xususiyatlari bolaning axloqiy fazilatlariga birlashtirilgan.

Intererizatsiya jarayonida esa bolaning tashqi axloqiy talablarini uning ichki axloqiy instantsiyalariga o'tkazish quyidagilarga bog'liq:

1) bolaga ma'lum bir axloqiy mazmunni ifodalash;

2) boshqa odamning tajribasini ta'kidlash va ularning xatti-harakatlarida ularga e'tibor berish qobiliyatini anglatuvchi axloqiy ma'noni ochish;

3) aniq muhim vaziyatda axloqiy me'yorni bajarish orqali bolaning axloqiy bilimlarini xulq-atvorning axloqiy motivlariga o'tkazish.

R.R.Kalinin tadqiqotlarida atrof-muhit talablari bolaning ehtiyojlari tarkibiga kirmaguncha, ular uning rivojlanishining omillariga aylanmaydi. Bolada talabni bajarish zarurati, agar uning bajarilishi u intilayotgan boshqa pozitsiyani egallashga imkon bersa, ya'ni uning ichki mavqeini qondirsagina paydo bo'ladi. Bu holatda kattalarning vazifasi N.V.Kosmacheva - axloqiy mazmunga ega bolalar psixikasining

tabiiy, tug'ma shakllarini (instinktlar, ehtiyojlar, shartsiz reflekslar, his-tuyg'ular) yuqori ruhiy shakllarga (tuyg'ular, tushunchalar, munosabatlar, motivlar, ehtiyojlar va boshqalar) aylantirish (madaniyat) bo'yicha maqsadli faoliyat. Psixikaning axloqiy mazmunga ega bo'lgan yuqori shakllariga o'tish bolalar tomonidan asosiy axloqiy qadriyatlarga asoslangan faoliyat, munosabat, fikrlash, xatti-harakatlar modellarini taqdim etish va o'zlashtirish jarayonida sodir bo'ladi. Ushbu topshiriqning psixologik mexanizmlari bolaning axloqiy mazmuniga ega bo'lgan va maktabgacha tarbiya yoshdagi bolalar uchun ochiq bo'lgan barqaror umuminsoniy qadriyatlarni interizatsiyalash, baholash, tanlash va eksteriorizatsiya qilishdir. N.G.Miloradova intererizatsiyani shaxs tomonidan tarbiyalash va ijtimoiy standartlarni o'zlashtirish jarayonida shakllanadigan psixologik munosabatlar kontekstida muhokama qiladi. U bu fikrni shunday ifodalaydi: me'yorlar va qoidalar ijtimoiy hodisa, shaxsning shaxsiy munosabati esa ularning psixologik hamkoridir.

Ko'rinib turibdiki, axloqiy me'yorlarni intererizatsiya qilish jarayoni maktabgacha tarbiya yoshdagi bolalarning yosh xususiyatlari, ularning tashqi muhit ta'siriga xos muvofiqligi bilan yaxshilanadi. V.E.CHudnovskiy maktabgacha tarbiya yoshdagi bolaning tashqi ta'sirlarga o'ziga xos sezgirligini ta'kidlaydi, bu ayniqsa, o'qitishsiz juda tez va amaliy ravishda sodir bo'ladigan imprinting (iz qoldirish) fenomenida aniq namoyon bo'ladi. Bu "axloqiy" imprinting ham tegishli.

Psixologiyada intererlashtirish va eksteriorizatsiya mexanizmlari bilan bog'liq holda, sotsializatsiya va individuallashtirish muammosi muhim o'rinni egallaydi. Bu ikki keng ko'lamli jarayonning o'zaro belgilanishi bugungi kunda bahsli emas va ularning birligida "jamiyat madaniyatini o'zlashtirish va takror ishlab chiqarish jarayoni"ni bildiradi.

Xulosa o'rnida shuni aytishimiz kerakki axloqiy munosabatlarni shakllantirishning naqadar katta ahamiyatga ega ekanligini, maktabgacha tarbiya yoshida ko'rish mumkin. CHunki aynan shu davrda tarbiya asosi shakllanadi. Demak, bolaning axloqiy munosabatlarini maktabgacha tarbiya yoshida bola shaxsi shakllanishining alohida bo'limi sifatida ko'rib chiqish zarurati paydo bo'ladi.

"Axloqiy munosabat" tushunchasining mohiyati maktabgacha tarbiya yoshida ijtimoiy muhit ta'sirida kattalar tomonidan olib boriladigan tarbiya jarayonini o'z ichiga olgan holda, bolalar hayotini tashkil qilishning tizimlashtiruvchi omili sifatida o'rganilishi kerak.

Sharq mutafakkirlari asarlaridagi fikrlarni umumlashtirgan holda farzand ta'lim-tarbiyasi barcha davr va jamiyat uchun muhim psixologik muammo ekanligi. Bugungi kunda maktabgacha tarbiya yoshi davri bolasini axloqiy tushunchalari shakllanishida ularda hosil bo'luvchi ustanovka va qadriyatlar tizimiga samarali ta'sir ko'rsatish manbaasi sifatida axamiyati dolzarbligi ko'rindi.

Psixolog olimlarning tadqiqotlarida maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalarda

axloqiy munosabatlar shakllanishining psixologik xususiyatlarini xulq-atvoridagi xususiyat sifatida shakllanishini psixologik omillar sifatida ko'rib chiqilmagan. Bu tadqiqotlar borada ham xorijda va yurtimizda bir qancha ilmiy ishlar amalga oshirilgan, ammo ularning barchasida yoshlik davrida axloq tuzilmasi muammosining ijtimoiy-psixologik omillaridan ayrimlarigina qisman tahlil qilingan.

Ishning keyingi qismi maktabgacha tarbiya yoshdagi bolalarda axloqiy munosabatlarning rivojlanishini qanday mexanizmlar belgilashiga bag'ishlangan.

Psixologik tadqiqotlar tahlili shuni ko'rsatadiki axloq tuzilmasi axloqiy anglash, axloqiy his etish va axloqiy munosabatlarni o'z ichiga olishi shu uch omillarning tuzilmadagi o'rni va mavqeini ham belgilab, bu masala bo'yicha turli xil qarashlar mavjudligi ko'rsatib beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Abramova G.S. O'smirlarning o'quv faoliyatini rag'batlantirishning axloqiy jihati // Psixologiya savollari. 1985 yil. 6-son. 38-45-betlar
2. Щерба, Л.В. Опыт общей теории лексикографии / Л.В. щерба.Избранные труды по языкознанию и фонетике. - Л., 1974.
3. Любарт, Т. Творчество психологии / Т. Любарт, К. Мусиру С. Торджман, Ф. Зенас. - М.: Когито-Центр, 2009. - 215с.
4. Степанов,С.Ю.Рефлексивная практика творческого развития.человеческое и организационное / С.Ю. Степанов. - М.: Наука, 2000. - 174с.